

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI SHAKLLANISHIDA MUOMILA ETIKASI

Rahimova Mahliyo Ilhomjon qizi

Namangan davlat universiteti Maxsus pedagogika 3-bosqich talabasi.

Anotatsiya: *Maqola xususan kichik yoshdagi bolalar nutqi shakllanishida pedagoglar, oilasining muhim rol tutishi va bu jarayonda bola nutqining normal rivojlanish jarayonlari hamda bola nutqining yoshga nisbatan rivojlanishi haqida boradi.*

Kalit so'zlar: *etika, axloq, nutq, normar rivojlanish, kontekst*

BEHAVOIRAL ETHICS IN FOMATION OF SPEACH OF YOUNG OF CHILDREN

Abstract: *The article deals with the important role of pedagogues and family in the formation of children's speech, especially in the formation of young children's speech and in this process the normal development processes of children's speech and the development children's speech in relation to age.*

Key words: *ethics, morality, speech, normal development, contextual enviroentment.*

ПОВЕДЕНЧЕСКАЯ ЭТИКА В ФОРМИРОВАНИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА

Аннотация: *В статье рассматривается важная роль педагогов и семьи в формировании речи детей, особенно в формировании речи детей раннего возраста, и в этом процессе нормальные процессы развития детской речи и развитие детской речи по отношению к возраст.*

Ключевые слова: *этика, мораль, дискурс, нормальное развитие, контекст.*

KIRISH

Tilimizda «go'zal», «chiroyli» degan so'zlar bor. Chiroyli narsa ko'z bilan ko'riladi. Go'zallik ham ko'z bilan ko'riladi, ham dil bilan his qilinadi, ong bilan idrok etiladi.

BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida yuksak jahon minbaridan turib butun dunyo afgor ommasiga qarata Prezidentim iz Islom Karimov: «M a'naviy, ilmiy va estetik qadriyatlar xalqimizning turmush tarzida, an'anaviy madaniyatida muhim o'rin olgani hech kimga sir emasligini» ta'kidladi. Shundan ko'rinib luribdiki, O'zbekiston nafosatga boy, taraqqiyparvar davlatdir.[1]

Etika axloqshunoslikning falsafiy-nazariy muammolarini va axloqqa doir didaktik-amaliy asarlarni o'z ichiga oladi. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikoyatlar, hikmatlar, naqlar, maqollar tarzida bayon etadi, kishilarga axloqning mohiyatini tushuntirib, falsafiy xulosalar chiqaradi, ularga axloqiy qonun-qoidalarni o'rgatadi.[2]

Asosiy qism. Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqining to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-

tarbiyaga bog'liq. Nutq tug''ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi. Masalan, 1 yosh-u 4 oylik bola gapirmayapti. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so'zlar qachon paydo bo'lishini bilsa, u holda u bu bolaning normal yoki no normal rivojlanayotganini hal qila oladi. Bola nutqining rivojlanish xususiyatlarini bilish, nutq buzilishlariga to 'g 'ri diagnoz qo'yish uchun ham zarurdir. Ba'zi mutaxassislar uch yoshli bolaning tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni logoped qabuliga yuboradilar. Bu to'g'rimi? Yo'q, albatta. Chunki nutqi normal rivojlanayotgan bolaga hali bu yoshda ba'zi bir tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish xos bo'ladi. Bu ko'rinish fiziologik dislasiya deb atalib, bu shu yoshdagi bolalarda artikulyatsiya apparatining hali yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda to'g'ri va aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini yana bir karra bilish zarur hisoblanadi.[3]

Xuddi shuningdek, bola tug'ilgan kuniyoq tilga kirmaydi. Ammo boshqa kishilar bolaning oldida unga murojaat qilib so'zlaydilar. Bola so'zlashuvchilar orasida o'sadi, so'ngra bola ma'lum yoshga yetgach, tilga kirib, so'zlashadigan bo'ladi. O'sayotgan bola tilni bilib oladi, tilning yordami bilan ajdodlarning to'plagan moddiy va ma'naviy tajribasini bilib oladi, ayni vaqtda o'zining psixik kuchlari ham kamolga yetadi. Har bir bolaning ongi o'zgaruvchi muhit ta'sirida kamol topadi. Shu sababli konkret muhitga (atrof muhit) qarab, o'sayotgan odam ongi ham har xil tarkib topadi va rivojlanadi.

Nutq oliy psixik funksiyalar tizimida yetakchi o'rin egallaydi hamda kishilarning yaratuvchanlik faoliyatida til vositasida o'zaro muloqotning asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. L.S.Vigotskiy bola nutqining uning atrofidagi katta kishilar ta'siri ostida shakllanish mexanizmlarini ko'rsatib berdi. Avval kattalar unga nutqiy ko'rsatmalar beradilar («qoshiqni ol», «o'yinchog'ingni menga ber» va h.k.), bunga javoban bola nomi aytilgan predmetni ko'zi bilan topadi va ko'rsatmani bajaradi. Bola faqat o'zi nutqni egallagandagina, o'ziga-o'zi buyruqlar, nutqiy ko'rsatmalar bera boshlaydi (avval ovoz chiqarib, keyin ichida) va o'z xatti-harakatlarini ularga bo'ysundiradi, ya'ni bola va katta odam o'rtasida taqsimlangan funktsiya endi shaxsning psixik faoliyatining oliy shakllarini tashkil etish usuliga aylanadi. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanish qonuni ham aynan mana shunda.[4]

Nutq bilan ishlash orqali ham muloqotga o'rgatish mumkin. Masalan, ovozni baland chiqarib she'r o'qish, hikoyani so'zlab berish kabi treninglar ham muloqotning shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin faoliyati davomida muloqotga o'rgatish oson kechadi.[5]

Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojining qondirilmashligi ular o'rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: ba'zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig'lab yuboruvchi bo'lib qoladilar; boshqalari esa – negativizm, tajovuzni namoyon

qilishadi. Bola hayotining to'rtinchi yilida tengdoshi uning uchun eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o'yindagi sherik sifatida qolaveradi.

Bola tengdoshiga eng oddiy talablar, iltimoslar bilan murojaat qiladi va tengdoshining harakatiga baho beradi. Besh yoshli bolalar tengdoshlarining hadeb u yoki bu narsani so'rab, jonga tegishini salbiy baholaydi. Besh yoshga kelib, tengdoshlari bilan muloqotga va ular bilan bolalar jamiyatini vujudga keltiradigan birgalikdagi o'yinlarga bo'lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bola hayotining beshinchi yiliga kelib, u o'z tengdoshlari o'rtasida o'z o'rnini anglay boshlaydi. Kommunikativ qo'nikma rivojlanadi: bola salomlashadi va xayrlashadi, do'stini ismini aytib chaqiradi, to'rt-besh yoshlarga kelib – sherigini u o'ynayotgan rol nomi bilan chaqiradi («hoy, shofyor, arqon g'ildirakning tagiga tushib ketdi»). Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bolaga o'zining «men»ini anglash imkonini

Bolaga oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida psixologik jihatdan qulay bo'lishi, uning kattalar va tengdoshlari o'rtasida emotsional jihatdan qulay muhit yaratish, ular bilan o'zaro munosabatlardan quvonch va zavq olishlari uchun quyidagilar zarur:

- bolaga kattalar va tengdoshlarining turli emotsional holatdagi hissiyotlari va kechinmalari olamini ochib berish;

- bolaning boshqa bolalar bilan ishongan holatda muloqot qilishi uchun sharoit yaratish;

- quvonchli, qayg'uli, xotirjam, emotsional holatini ko'rish va tushunishga bo'lgan intilishni rivojlantirish;

- o'zini tutib turish va g'azab, qo'rquv, jahl hislarini ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda namoyon qilishni rivojlantirish (boshqa bolani turtmaslik, urmaslik, o'yinchoqni qo'ldan tortib olmaslik va h.k.);

- jamiyatda qabul qilingan muloqot usullaridan foydalanish ko'nikmasini tarbiyalash: ochiq chehra bilan salomlashish va xayrlashish, o'z iltimos va takliflarini xushmuomalalik bilan bildirish; yordam berganlik, mehmon qilganlik uchun, o'yinchoqni berib turganlik uchun minnatdorchilik izhor qilish; o'rtog'ining iltimosiga xushmuomalalik bilan javob qaytarish; javobini xotirjamlik bilan tinglash; o'rtog'ini xafa qilmaydigan ohangda o'z noroziligini izhor qilish.[6]

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish joizki jamiyatda togri hayot shaklini yashash uchun albatta yosh avlodni tarbiyalshdan boshlash lozim. Bu tarbiyaviy jarayonni olib borishda pedagoglar , ota-onalarning hizmatlari muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish xilma-xil faoliyat turlarida amalga oshadi:

- tabiat ob'ektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;

- badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;

- savodga o'rgatishda;

- o'yin faoliyatida;

ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarni bajarish asosida. Ushbu faoliyat jarayonlari orqali bolalardagi nutqiy madaniyatni shakllantirish uchun qulaylik yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyatning asosiy negizi bolajonlarga nafaqat ta'lim- tarbiya shu jarayonda u bilan birga ulardagi etik- estetik madaniyatni ham birgalikda shakllantirish lozim ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nuritdinovna, N. M. (2022). BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGNING O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(4), 61-63.

2. Nuritdinovna, N. M., & Murtozaevna, M. M. (2022). PEDAGOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING PROFESSIONAL MOBILITY OF FUTURE MANAGERS. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.5 Pedagogical sciences).

3. Низамова, М. Н. (2022). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ БУДУЩЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ. Science and innovation, 1(В3), 530-532.

4. Низамова, М. Н. (2022). ПРИЧИНА ВОЗНИКНОВЕНИЯ АУТИСТИЧЕСКОГО ДЕФЕКТА. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 59-61.

5. Nuriddinovna, N. M. (2022). NUTQNI TO'LIQ RIVOJLANMAGANLIGINI BARTARAF ETISHDA PEDAGOGIK KORREKSION ISHLAR TIZIMI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(25), 19-22.

6. Nizamova, M. (2023). BO 'LAJAK MENEJERLARDA AKADEMIK MOBILLIKNI AMALGA OSHIRISH SHART SHAROITLARI. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 759-763.

7. Muyassar, N. (2023). OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA KASBIY MOBILLIKNI RIVOJLANTIRISH VA ULAR ASOSIDA PEDAGOGIK MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 12-15.

8. Sodiqova, Y., & Nizamova, M. (2023). YOZMA NUTQ NUQSONLARI. Академические исследования в современной науке, 2(11), 76-80.

9. Nizamova, M., & Mansurova, S. (2024). BOLAGA NECHA YOSHDAN CHET TILLARNI O'RGATISH MUMKIN? OTA-ONALARNI QIZIQTIRGAN SAVOLLARIGA MUTAXSIS JAVOBI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 2(1), 46-49.

10. Muyassarxon, N. (2024). BOLALARDA AUTIZM BELGILARI VA TASNIFI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 128-132.